



## **XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

**190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012**

2022 йил «23» июль

VI-51-126-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

### **Tumanda kapital qurilish, kommunikatsiyalar va communal xo‘jalik masalalari sohasida belgilangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatgichlarining ijrosi haqida**

Tumanda kapital qurilish, kommunikatsiyalar va communal xo‘jalik masalalari sohasida belgilangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatgichlari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tumani hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rribosari X.Abdullayevning hisoboti tinglandi. Tumanda Obodonlashtirish boshqarmasi balansida jami 13 ta qabristonlar mavjud bo‘lib, umumiylar maydoni 105 hektarni tashkil etadi. Obodonlashtirish boshqarmasi balansida qabristonlarda doimiy ravishda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borilib, jumladan ko‘chat ekish 3150 dona, daraxt oqlash 2130 dona, yer yumshatish 15270 m.kv, begona o‘tdan tozalash 25615 m.kv, maydonlarni sug‘orish 21400 m.kv, yo‘lak supurish 17000 m.kv, daraxtlarga shakl berish 2070 dona, ko‘chat sug‘orish 8910 dona, ariq tozalash 13525 p/m, chiqindi chiqarish 6705 m<sup>3</sup>, qabristondagi qabrnini loysuvoq qilish 220 dona, qurilish ishlari 1010 m.kvni tashkil etadi. Shuningdek X.Abdullayevning tumanda 2022-yil yanvar-iyun oylari maboynidagi jami 6,20 km piyoda va 2,8 km salomatlik yo‘laklari qurilgan, shundan “Navro’z” mahallasida 1,5 km, “Qadimiy Angor” mahallasida 2,1 km va “Navbahor” mahallasida 0,8 km piyoda yo‘laklari va “Dehqonbirlashuv” mahallasida 1,1 km va “Yuqori Xo‘jaqiy” mahallasida 0,7 km salomatlik yo‘laklari barpo etilgan. Bundan tashqari bugungi kunda tumanning “Qadimiy Angor”, “Navbahor” mahallalari hududida piyoda va salomatlik yo‘laklarini qurish maqsadida 2,8 km yer ishlari bajarilayotganligi bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, communal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga taqdim etgan hisoboti muhokamasida bildirilgan taklif-mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24- moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tumanda qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘massalalari sohasida belgilangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatgichlarining ijrosi to‘g‘risida tuman hokimining o‘rnbosari X.Abdullayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rnbosari X.Abdullayevning taqdim etgan hisoboti asosida tumanda 13 ta qabristonlarni qurilish va ta’mirlash ishlari bo‘yicha joriy yil davomida 13 ta qabristonlarni qurilish va ta’mirlash ishlari yaxshilanganligi hamda 2022-yil yanvar-iyun oylari mobaynida jami 6,20 km piyoda va 2,8 km salomatlik yo‘laklari qurilganligi tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rnbosari X.Abdullayevning tumanda kapital qurilish, kommunikatsiyalar va communal xo‘jalik masalalari sohasida belgilangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatgichlari asosida tashkil etgan ishlari yaxshi deb baholansin.

4. Tuman hokimining o‘rnbosari (X.Abdullayev) tegishli mas’ul idoralar bilan birgalikda 2022-yilda tumanda qishloq va mahallalarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari va investitsiya dasturlarida belgilangan rejalarining ijrosini to‘liq ta’minlab, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oyda tuman Kengashiga axborot kirmsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati va “Angor yog’dusi” gazetasi (G.Jumayeva) ga tumanda qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari sohasida belgilangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatgichlarining ijrosi, Dasturlarda belgilangan tadbirlarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, communal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Sadatov), tuman hokimining o‘rnbosari X.Abdullayevlar zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Hokim**



**SH.B.ABDULLAYEV**